Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320975

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

6. Доклад о состоянии экологии Узбекистана: Водные ресурсы, загрязнение воздуха и охрана природы. – Министерство экологии и природных ресурсов Республики Узбекистан, 2022.

7. Роль инновационных стартапов в экономике Узбекистана. / И. Ш. Умаров. – Ташкент: Узбекская ассоциация предпринимателей и производителей, 2022.

O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHDA ISLOMIY MIKROMOLIYA TIZIMINING AHAMIYATI

Azimjon Musamukhamedov Jamoliddinovich
Toshkentdagi Vestminster Xalqaro Univeriteti (TXVU) PhD doktoranti
azi.musamuxamedov@wiut.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada kambag'allikni bartaraf etishda yangi yondoshuvlarning muhim ekani va ularning empirik ahamiyati o'rganiladi. Tadqiqotda zamonaviy moliya tizimlari bilan islomiy mikromoliya tizimlari solishtiriladi va tavsiyalar beriladi. Shuningdek, aholining kam ta'minlangan qatlami va tadbirkorlikning tayanch sub'ektlari uchun foizli qarzlar o'rniga sherikchilikka asoslangan model va asoslar keltirilgan.

Kalit so'zlar: islomiy mikromoliya, kambag'allik darajasi, zakot, vaqf , sadaqa

Kirish

Kambag'allik bugungi kunning eng katta muammolaridan biridir. Bugungi kunda qariyb 700 million kishi - dunyo aholisining 8,5 foizi, o'ta qashshoqlikda - kuniga 2,15 dollardan kam daromad bilan yashaydi. Global iqtisodiy taraqqiyot COVID-19 tufayli muvaffaqiyatsizliklarning kuchayishi sharoitida biroz to'xtab qoldi. Kam daromadli mamlakatlarda qashshoqlik darajasi so'nggi yillarda pandemiyadan oldingi holatdan ham yuqori darajani qayd etdi (Jahon banki, 2023). Musulmon hamjamiyati bu borada ko'plab harakatlar va urinishlar ustida turibdi. Jahon banki tarafidan har qanday shaxsning kunlik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan sarf harajat ko'rsatgichi 2.15 AQSH dollari etib belgilangan (Jahon banki 2023). Qashshoqlikka qarshi kurashish turli ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlarga ega murakkab va xilma-xil ishdir. O'zbekistonda qashshoqlik shunchaki iqtisodiy raqam emas, balki ko'pchilikning imkoniyatlari va hayotlari sifatiga ta'sir ko'rsatadigan muhim ijtimoiy muammodir. Bugungi kunda islom va zamonaviy ta'limotlarda ijtimoiy adolat va daromadlarni qayta taqsimlash yo'li sifatida xayriya jamg'armalariga katta e'tibor qaratilgan. Majburiy va ixtiyoriy to'lovlarning asosiy tushunchalari, shuningdek, ixtiyoriy xayriya ishlari bugungi kunda O'zbekistonda kuzatilayotgan iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishning potentsial yo'llarini taqdim etmoqda (Tursunov A., 2023).

O'zbekistondagi qashshoqlik muammosini bartaraf etishning ijodiy va amaliy usullari uning benihoya zarurligidan dalolat beradi. Milliy sa'y-harakatlarga va tashqi yordamga, jumladan, xalqaro tashkilotlarning imtiyozli ko'maklariga kreditlariga qaramay, kambag'allikni samarali kamaytirishga bir necha tarkibiy muammolar to'sqinlik qilmoqda. Ushbu tadqiqotga ko'ra, xayriya va majburiy to'lovlar bilan bog'liq tashabbuslar mavjud moliyaviy resurslarni yanada teng taqsimlanishini rag'batlantirish uchun ma'naviy majburiyat va jamoatchilik yordamidan foydalangan holda ushbu muammolarni hal qilish uchun mustahkam poydevor yaratish mumkinligi kutiladi. Joriy tadqiqot islomiy mikromoliya tashkilotlari va notijorat tashkilotlarining rolini o'rganib, O'zbekistondagi qashshoqlikni ko'rib chiqadi. U ixtiyoriy va majburiy to'lovlarini qashshoqlikdan xalos bo'lishning muhim strategiyasi sifatida islomiy mikromoliya

Published: 23.12.2024

Cite this article: Azimjon Musamukhamedov Jamoliddinovich (2024). O'zbekistonda kambag'allikni bartaraf etishda islomiy mikromoliya tizimining ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320975

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

tashkilotlari bilan bog‘laydi va ularning xizmatlarini ehtiyojmand shaxslarga safarbar qilishlini ustuvor deb sanaydi. Odatga ko‘ra mikromoliya tashkilotlari ikki hil turda bo‘lib, ular an’anaviy va islomiy mikromoliyalash tizimlaridir. Islomiy mikromoliyalash tizimlari kam daromadli aholi va kichik biznes egalari uchun moliyaviy inklyuziyani ta’minlashga imkon beradi (Ali, 2017; Alaro va Alalubosa, 2019). Bunda an’anaviy yondoshuvdan ancha farqli ta’minot va tizimni yuzaga keltiribgina qolmay, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashni ta’minlaydi, tengsizlikni kamaytiradi va qashshoqlar uchun imkoniyatlar yaratadi (Demirguc-Kunt, Beck va Honohan, 2008). Bunga oida ko‘plab adabiyotlar sharxini quyida mavzuga oid adabiyotlar tahlilida ko‘rish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mikromoliya haqida tasavvur

Mikromoliyalash tizimining mohiyati – odatiy banklar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy resurslarga ega bo‘lmagan kam daromadli aholi va kichik biznes egalariga ushbu bo‘shliqni to‘ldirish imkoniyatini berishdir. Shunga ko‘ra, mikromoliyalash tizimi kam daromadli aholining moliyaviy tizimga qo‘shilishini ta’minlash va moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish maqsadida joriy qilingan hisoblanadi (Jimoh 2024). Dunyoning ko‘plab davlatlarida mikromoliyalash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlari to‘liq amalga oshdi deb bo‘lmaydi, chunki aholisining aksari musulmon bo‘lgan davlatlar hali ham bu xizmatlardan to‘liq foydalana olmayaptilar. Ushbu cheklovning sababi shundaki, ba’zi kam daromadli aholi munosabatlarida moliyaviy xizmatlar mavjud bo‘lsa ham, diniy e’tiqodlari afzal ko‘rgan dalillar sabab, mikromoliyadan foydalanmaslikni afzal ko‘radilar (Maulana va boshq., 2018). Shaikh (2017) fikriga ko‘ra, qashshoqlikni foiz asosiga qurilgan mikromoliyadan ko‘ra foyda ulashishga asoslangan islomiy mikromoliyalash tizimi orqali samaraliroq kamaytirish mumkin. Umuman olganda, mikromoliya bu moliyaviy xizmatlar, masalan, omonatlar, kreditlar, to‘lov xizmatlari, pul o‘tkazmalari va sug‘urta xizmatlari kambag‘al va past daromadli shaxslar hamda ularning mikroiqtisodiy faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan tizimdir (Babu, Naratejaswini & Umakanth, 2019). Hindiston Markaziy banki (2000) tomonidan ta'riflanishicha, mikromoliya bu mablag‘, kredit va boshqa moliyaviy xizmatlar orqali kambag‘al va kichik tadbirkorlarga qishloq, yarim shahar va shahar hududlarida yashash sharoitlarini yaxshilashni maqsad qilgan tizimdir. Kurmanalieva va boshqalar (2003) mikromoliyalanishni iqtisodiy jihatdan kam ta’minlangan shaxslarni mikro-kreditlar va boshqa kichik miqyosdagi moliyaviy xizmatlar bilan ta'minlashga qaratilgan tizim deb ta'kidlaydilar. Mikromoliya, shuning uchun, moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishning bir strategiyasidir. Adnan va Kumar (2021) bu fikrni qo‘llab-quvvatlab, mikromoliya odatda an'anaviy bank tizimidan chetlashtirilganlarga bank xizmatlarini taqdim etishdir, deb ta'kidlaydilar. Mikromoliya tizimi moliyaviy jihatdan zaif bo‘lganlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab quvvatlash yo‘lida muhim vosita hisoblanadi (Adnan & Kumar, 2021). Mikromoliyaning ahamiyatini muhokama qilgan Rohman va boshqalar (2021) uni kambag‘allik muammolarini hal qilish uchun samarali vosita sifatida ko‘rsatar ekan, u mikro-kreditlar yordamida mikro va kichik bizneslarga yordam berishini ta’riflaydilar. Mikromoliya institutlari o‘zlarining kutilgan natijalariga yetarlicha erishmaganlar. Boisi, ularning bugungi faoliyat ko‘rinishlari ma’lum ma’noda ma’lum sabablarga ko‘ra tubdan isloh talab hisoblanadi, bunga sabab, ular hali ham foiz asosida ish yuritadilar. 1976 yil Nobel mukofoti laureati Muhammad Yunus mazkur tizimni ishlab chiqqach, uning asliy maqsadini kambag‘allikka qarshi kurash deb belgilaydi. Keyinchalik, Muhammad Yunus asos solgan mikromoliya modeli o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib, foyda olishga qaratilgan mexanizm sifatida turli moliyaviy maqsadlarda foydalana boshlandi (Johnson S 2009). Shuning uchun, musulmonlar orasida moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish va kambag‘allikni

yengillashtirish maqsadida bugungi kunda boshqa muqobil mexanizm - islomiy mikromoliya dasturi qabul qilingan (Shinkafi, Yahya & Sani, 2019; Alaro & Alalubosa, 2019).

Islomiy mikromoliya

Islomiy mikromoliya bu kam ta’minlangan aholi qatlamini, mikro va kichik bizneslarni, moliyaviy cheklovlar tufayli tashqi moliyaviy xizmatlardan foydalana olmaydigan shaxslarni islom shariatiga mos moliyaviy yordam bilan ta'minlashni maqsad qilgan tizimdir (Akbar & Siti-Nabiha, 2022; Dusuki, 2008). Rohman va boshqalar (2021) islomiy mikromoliyani shariat maqasidlarini qo‘llaydilar, sudxo‘rlikni ta'qiqlaydilar, adolatsizlik va qimor ko‘rinishlariga xos faoliyatlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan islomiy qadriyatlar asosida ishlaydigan tizim sifatida ko‘radilar. Islomiy moliya sohasining bir bo‘lagi sifatida, islomiy mikromoliya shariat qonunlariga amal qiladi va foiz (ribo) asosida bo‘lgan tranzaksiyalarni taqiqlaydi (Hassan va boshqalar, 2021). Shuning uchun islomiy mikromoliya o‘z dasturlarini islomiy shariat tamoyillari bo‘yicha amalga oshiradi, buning ichiga foizni taqiqlash, riskni baham ko‘rish, no‘malum savdo tushunchalariga asoslangan noaniqlikdan qochish va jamiyatning barcha a'zolari uchun farovonlikni ta'minlash kiradi (Nabi va boshqalar, 2017). Islomiy mikromoliya moliyaviy vositachilikni rivojlantiradi va kambag‘allikni yengillashtiradi (Jimoh, 2024). Elkomi va Kroson (2013) islomiy mikromoliya mahsulotlari, ayniqsa hamkorlik shartnomalarini taqdim etish orqali musulmon va musulmon bo‘lmagan aholi uchun moliyaviy mablag‘larni to‘plashda samarali vosita ekanini asoslaydilar. Bu, islomiy mikromoliyaning musulmonlar orasida qarzdorlikni kamaytirish va musulmon bo‘lmaganlar orasida yuqori muvofiqlikni ta'minlashga yordam beradi. Islomiy mikromoliya moliyaviy inklyuziya orqali kambag‘allikni kamaytirishi mumkin (Ali, 2017). Shinkafi, Yahaya va Sani (2019) islomiy mikromoliya institutlari kafolatsiz kreditlar va past tranzaksiya xarajatlariga e'tibor qaratishi kerakligini aytadilar, bu ularni boshqa islomiy moliyaviy turlardan ajratib turadi (Widiarto & Emrouznejad, 2015).

Islomiy mikromoliya tuzilmalari

Global Islomiy Moliyaviy Hisobot (2012) islomiy mikromoliya mahsulotlarini uch turga ajratgan: mikro-kredit, mikro-faoliyatlar va xayriya. Mikro-kreditda biznesning aktivlari ijaraga asoslangan bo‘lib, biznes imkoniyati yuzaga kelganida yetishmaslikni qoplash uchun foydalaniladi. Mikro-faoliyatlarda ishlab chiqarish omillari daromad yoki zararni kelishilgan nisbatda bo‘lishish imkoniyatini yaratish uchun birlashtiriladi. Islomiy mikromoliyaning xayriya turi esa, institut yoki tizim tomonidan odamlarni xavfsizlik va barqarorlik maqsadlarida qo‘shimcha ravishda kuchaytirishdir (Nabi va boshqalar, 2017). Usman va Tasmin (2016) ga ko‘ra, mikro-kredit mahsulotlariga qarz al-hasan, murobaha, ijara va salam; mikro-faoliyat operatsiyalariga esa muzoraba va mushoraka; xayriyaga esa odatda zakat, sadaqa va waqf mansub. Mikro-kredit, mikro-faoliyat va xayriya tashqi moliyaviy xizmatlardan tashqari, islomiy mikromoliya, islom dini qadriyatlari bo‘yicha ta'limni taqdim etadigan -moliyaviy bo‘lmagan xizmatlarni ham ko‘rsatadi (Senghor, 2023).

Mikrokredit mahsulotlari

Qarz al-hasan - bu foizsiz kredit bo‘lib, odatda maqsadli mijozlarga favqulodda holatlarda yoki likvidlik etishmovchiligi paytida beriladi va institutlar bilan mijozlar o‘rtasida yaxshi munosabatlarni rivojlantiradi (Sadr, 2015). Murobaha shartnomasida, bir aktiv yoki mahsulot institut (masalan, mikromoliya banki) tomonidan sotib olinadi va keyin mijozga xarajatlar va foyda qo‘shilgan narxda sotiladi (Ijaiya va boshqalar, 2021). Ijarada esa, mulkdor yoki moliyalovchi va foydalanuvchi o‘rtasida aktivdan foydalanish huquqini ma'lum bir muddatga o‘tkazish bo‘yicha kelishuvga erishiladi va aktiv egasiga ijara uchun to‘lovlar amalga oshiriladi (Afkar, 2015). Salam bu boshqa bir islomiy moliya

shartnomasi bo‘lib, kichik bizneslarni xizmat ko‘rsatish uchun qabul qilinishi mumkin. Bu shartnoma ma'lum bir tovarni sotish bo‘yicha kelishuvdir, bunda tovar miqdorini va uning narxi bilish mumkin, ular shartnomada belgilangan vaqtda to‘lanadi, ammo kelajakda yetkazib berilishi kerak bo‘ladi (IFSB, 2018).

Mikrofaoliyat mahsulotlari

Jimoh, Attah va Abdul (2021) muzorabani islomiy moliyaviy shartnoma sifatida ko‘radilar, bunda kapital tadbirkorga topshiriladi, u mablag‘ni foyda olish uchun investitsiya qiladi va keyin foyda moliyalovchi va tadbirkor o‘rtasida taqsimlanadi. Mikromoliya institutlari kichik biznes egalari uchun bizneslarini rivojlantirishda yordam berishlari mumkin, shu bilan foyda bo‘lib olinishni ta'minlaydi (Jimoh, 2024). Yana bir foyda bo‘lishish asosidagi mikro-faoliyat mahsuloti mushorakadir. Arshad va Ismail (2018) bu mahsulotda, ikkala taraf ham biznesda ishtirok etadilar va barcha to‘lovlar o‘zaro kelishilgan foizga ko‘ra bo‘linishini keltiradilar.

Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usuli

Mazkur maqola mavjud islomiy mikromoliya tashkilotlari faoliyatlari doirasida olib borilgan ilmiy va empirik ishlarning umum ko‘nikmalari natijalari, ularga oid turkum va ilmiy maqolalar, ilmiy izlanishlar va tadqiqot ishlariga tayanadi. Shuningdek mazkur maqolada qiyosiy va ilmiy yondoshuvlarning ham o‘ziga xos metodik uslublaridan olingan na’munalarni ko‘rish mumkin.

Odatda mikromoliya tashkilotlari iqtisodiy resurslari yetarli bo‘lmagan shaxslar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning kunlik, haftalik va xattoki oylik sarf harajatlarini qisman qanoatlantirish maqsadida tartibga solingan tizim hisoblanadi. Mikromoliya institutlarida ko‘plab xizmatlar mavjud bo‘lib, ular muddatli qarz, sug‘urta, moliyaviy savodxonlik, va malakaviy ko‘nikmalarni tarbiyalash uchun xizmat qiladi (4).

Adabiyotlar orqali islomiy mikromoliya vositalarini ikki asosiy toifaga ajratish imkoniyati paydo bo‘ldi:

Xayriyaga asoslangan vositalar: Zakot, Vaqf, Sadaqa.


Moliyaga asoslangan vositalar: Mikrokredit bo‘yicha: Qarz al-hasan, Salam, Murobaha, Lizing va Mikromoliya bo‘yicha: Mushoraka, Muzorabalardir.

Nazariy model ishlab chiqish zarurati

Tadqiqot davomida islomiy mikromoliya tizimi vositalarining O‘zbekistondagi qo‘llanilishi uchun maxsus nazariy model ishlab chiqildi. Ushbu model xayriya va moliyaga asoslangan vositalarning o‘zaro aloqasi va rolining ahamiyatiga asoslanadi. Modelda xayriya asosidagi vositalarning kambag‘allikni bartaraf etishdagi ijtimoiy ko‘magi va moliya asosidagi vositalarning tadbirkorlik va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati tavsiflanadi. Ikkilamchi ma’lumotlarni tahlil qilish ahamiyati

Turli tadqiqotlardan olingan natijalar, jumladan, boshqa davlatlardagi islomiy mikromoliya tajribalari o‘rganildi. Ushbu ma’lumotlardan foydalanib, islomiy mikromoliya vositalarining samaradorligi va ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari birlamchi tarzda nazariy asoslarga ko‘ra baholandi.

Analitik yondashuv yordamida xayriya va moliyaga asoslangan vositalarning iqtisodiy tengsizlik va moliyaviy inklyuziyaga ta’sir qilishiga doir qiyosiy tahlillar ilmiy ishlarning umum ko‘lamiga muvofiq o‘rganildi (Balqis, N. va boshqalar 2023). Quyida O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni bartaraf etish yo‘lida ishlab chiqilgan islomiy mikromodelni ko‘rish mumkin:



Sifatli tahlil usuli

Tadqiqotda adabiyotlardan olingan ma’lumotlar asosida sifatli va tavsifiy tahlil usuli qo‘llanildi. Ushbu tahlil vositalar orqali islomiy moliyaviy tamoyillar – foizsiz moliyalashtirish, xatarlarni bo‘lishish va ijtimoiy adolat – mikromoliyadagi o‘ziga xos xususiyatlari yoritildi.

Modelni kontekstualizatsiya qilish

Taklif etilgan model O‘zbekistondagi kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiladigan amaliy strategiyalarni shakllantirish uchun nazariy asos sifatida qo‘llanildi. Modelni iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashtirish va rivojlantirish orqali O‘zbekistonda islomiy mikromoliya tizimini joriy etishning istiqbollari nazariy asosda tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi:

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirishda islomiy mikromoliya tizimining imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, islomiy mikromoliya vositalari ikki asosiy yo‘nalishda – xayriyaga asoslangan va moliyaga asoslangan yondashuvlar orqali iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va moliyaviy inklyuziyani kuchaytirish imkoniyatini beradi.

Xayriyaga asoslangan vositalarning ahamiyati

Zakot, Sadaqa va Vaqf kam ta’minotga ega shaxslarning eng asosiy ehtiyojlarini qondirishda ijtimoiy yordam manbai sifatida xizmat qiladi. Ushbu vositalar orqali aholining eng zaif qatlamlariga darhol yordam berish va ularni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish imkoniyati mavjud.

Xayriyaga asoslangan vositalar moliyaviy resurslar yaratish bilan birga, kambag‘al qatlamni iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirish uchun asosiy dastlabki qadam sifatida qaralishi mumkin.

Moliyaga asoslangan vositalarning ahamiyati

Murobaha, Mushoraka, Muzoraba, va boshqa moliyaviy vositalar kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikka erishishda muhim o‘rin tutadi.

Ayniqsa, qarz al-hasan (foizsiz qarz) vositasi moliyaviy og‘irliklarni kamaytirib, daromadi past aholi uchun mos keluvchi barqaror moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Xayriya va moliyaga asoslangan yondashuvlar o‘rtasidagi muvozanat

Xayriya vositalari qisqa muddatli ijtimoiy yordam sifatida samarali bo‘lsa, moliyaviy vositalar uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish uchun zarur hisoblanadi.

Ushbu ikkita yondashuvning uyg‘unligi O‘zbekistonda kambag‘allikni tizimli ravishda bartaraf etishga xizmat qilishi mumkin. Masalan, xayriya asosidagi resurslar moliyaviy vositalarni moliyalashtirish uchun boshlang‘ich kapital sifatida ishlatilishi mumkin.

Islomiy mikromoliya tizimini O‘zbekistonda joriy etishning imkoniyatlari va cheklovlari

Islomiy mikromoliya vositalari O‘zbekistonda aholi ko‘pchiligining diniy qadriyatlariga mos kelishi sababli, ushbu tizimni rivojlantirish uchun ijtimoiy asos mavjudligi bilan alohida ahamiyatlidir. Biroq, islomiy moliyalashtirish tamoyillariga mos keluvchi tartibga solish va huquqiy mexanizmlarning yetishmasligi ushbu tizimning to‘liq ishlashiga to‘siq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, huquqiy va institutsional islohotlar mutloq zarur.

Boshqa davlatlar tajribasi asosida xulosalar

Malayziya, Indoneziya, va Bangladesh kabi davlatlarda islomiy mikromoliya vositalarining muvaffaqiyatli qo‘llanilishi O‘zbekistonda ushbu modelning amalga oshirilishi uchun qimmatli ijobiy saboq bo‘lishi mumkin.

Ushbu davlatlarning tajribasi o‘z navbatida, O‘zbekistonda islomiy mikromoliya vositalarining ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirini oshirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda kambag‘allikni bartaraf etishda islomiy mikromoliya tizimining ahamiyatini tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqotda xulosa qilinishicha, islomiy mikromoliya vositalari, ayniqsa, xayriyaga asoslangan (Zakot, Vaqf, Sadaqa) va moliyaga asoslangan (Murobaha, Mushoraka, Qarz al-hasan) yondashuvlar kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim rol o‘ynashi mumkinligi bir necha bora e’tirof etildi.

Xayriyaga asoslangan vositalar kambag‘al aholini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich yordamni ta’minlaydi. Bu esa fuqarolarda iqtisodiy faoliyatga qo‘shilish uchun sharoit yaratadi. Moliyaga asoslangan vositalar esa barqaror iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy mustaqillikka erishish uchun uzoq muddatli vositalarni zarurat extiyojidagi qatlam uchun taqdim etadi. Ushbu vositalarning uyg‘un qo‘llanilishi islomiy moliya tizimining O‘zbekiston sharoitida muvaffaqiyatli qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Biroq, ushbu tizimni to‘liq amalga oshirish uchun O‘zbekistonda huquqiy va institutsional islohotlar o‘tkazilishi zarur. Shu bilan birga, boshqa davlatlar, xususan, Malayziya va Bangladesh tajribalarini o‘rganish orqali islomiy mikromoliyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Mazkur tadqiqot islomiy mikromoliya vositalarini O‘zbekiston iqtisodiyoti va jamiyatida kambag‘allikni kamaytirishning muhim mexanizmi sifatida joriy etish imkoniyatini ta’kidlaydi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu tizimning aniq iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirini baholash uchun batafsil empirik tahlil o‘tkazish zarurati mavjudligi ham ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Adnan, M.A., & Ajija, S.R. (2015). The effectiveness of baitul maal wattamwil in reducing poverty: The case of Indonesian Islamic microfinance institution. Humanomics 31(2),160-82.

Akbar,T. Siti-Nabiha, A.K. (2022). Objectives and measures of performance of Islamic microfinance banks in Indonesia: The stakeholders’ perspectives. ISRA International Journal of Islamic Finance, 14(2), 124-140.

Alaro, A. A., & Alalubosa, A.H. (2019). Potential of Sharı’ah compliant microfinance in alleviating poverty in Nigeria. Int. J. Islam. Middle E Finance Manag. 12(1), 115–129.

Ali, A.E.E.S. (2017). The challenges facing poverty alleviation and financial inclusion in North-East Kenya Province (NEKP). Int. J. Soc. Econ. 44 (12), 2208–2223.

Arshad, N.C., & Ismail, A.G (2010). Shariah parameters for musharakah contract: A comment. International Journal of Business and Social Science, 1(1), 145-162.

Babu, D.R. Naratejaswini & Umakanth, J (2019). The role of microfinance in India. 14th International Conference on Science, Technology and Management, organized by Guru Gobind Singh Polytechnic, Nashik, Maharashtra, India.

Balqis, N. et al. (2023). Title: An Integrated Model of Islamic Social Finance Towards Sustainable Funding. Available from https://www.bankrakyat.com.my/uploads/content-downloads/file_20240715161119.pdf [Accessed 12 December 2024].

Demirguc-Kunt, A. Beck, T. & Honohan, P. (2008). Finance for all: Policies and pitfalls in expending (policy research report). Washington Dc: World Bank.

Dusuki, A.W. (2008). Understanding the objectives of Islamic banking: a survey of stakeholders’ perspectives. International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management, 1(2), 132-148.

El-Komi, M. & Croson, R. (2013). Experiments in Islamic microfinance. Journal of Economic Behavior & Organization, 95, 252–269.

Hassan, M. K., Alshater, M. M., Hasan, R. & Bhuiyan, A. (2021). Islamic microfinance: A bibliometric review. Global Finance Journal, 49, 1-14.

Ijaiya, M.A., Jimoh,A.T. Attah, J.A, Abdulmumin, B.A, & Nafiu, A.I. (2021). Murabaha-related credit risk and financial performance of Islamic banks in Africa. International Journal of Islamic Banking and Finance Research, 5(1),60-69.

Jimoh, A.T., Attah, J.A. & Abdul, F.A (2021). Financial performance of Islamic banking in Nigeria: A camel analysis of Jaiz bank Plc. International Journal of Shari'ah and Corporate Governance Research, 4(1), 1-15.

Maulana, H., Abdul Razak, D., Adeyemi, A. A. (2018). Factors influencing behaviour to participate in Islamic microfinance. International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management, https://doi.org/10.1108/IMEFM-05-2017-0134

Rohman, P. S., Fianto, B.A., Shah, S. A. A., Kayani, N. S. & Supriani, I. (2021). A review on literature of Islamic microfinance from 2010-2020: Lesson for practitioners and directions. Heliyon, 7, 1-11.

Sadr, S.K. (2015). Qarḍ ḥasan financing in islamic banks. ISRA International Journal of Islamic Finance, 6(2), 1-14.

Shaikh, S.A. (2017). Poverty alleviation through financing microenterprises with equity finance. J. Islam. Account. Business Res. 8 (1), 87–99.

Shinkafi, A.A., Yahaya, S., & Sani, T.A. (2019). Realising financial inclusion in Islamic finance. J. Islam. Market. 11 (1), 143–160.

Tursunov, A. (2023). Economic Essentials of Islamic Microfinance and Importance in Poverty Reduction. Google.com. Available from https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=QM-

9wKoAAAAJ&citation_for_view=QM-9wKoAAAAJ:W7OEmFMy1HYC [Accessed 12 December 2024].

Usman, A.S, & Tasmin, R. (2016). The Role of Islamic Micro-finance in Enhancing Human Development in Muslim Countries. Journal of Islamic Finance, 5(1),53–62.

Widiarto, I., & Emrouznejad, A. (2015). Social and financial efficiency of Islamic microfinance institutions: A data envelopment analysis application. Socio-Economic Planning Sciences, 50, 1–17. https://doi.org/10.1016/j.seps.2014.12.001.

World Bank. (2024). Poverty, Prosperity, and Planet Report 2024. World Bank. Available from https://www.worldbank.org/en/publication/poverty-prosperity-and-planet.

РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА-ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Абдуллаева Барчиной Юлдашевна
Старший преподаватель кафедры «Менеджмент» Ферганский политехнический институт
b.abdullayeva@ferpi.uz

В настоящее время особенно важными являются вопросы эффективного использования природных ресурсов как по странам в целом, так и на уровне регионов, которые оказывают влияние на деятельность малых предприятий.

Мы в своём исследовании хотели бы затронуть вопросы целенаправленного использования имеющихся природных ресурсов на региональном уровне для успешного развития малого бизнеса и частного предпринимательства в регионах Узбекистана.

Ферганский регион - это регион в Центральной Азии, который частично находится в Узбекистане, Киргизии и Таджикистане. В этом регионе обширное разнообразие природных ресурсов оказывает важное влияние на экономику и общество.

Ферганская долина обладает плодородными почвами, что делает ее подходящей для сельского хозяйства. Земельные ресурсы используются для выращивания хлопка, фруктов, овощей и других сельскохозяйственных культур.

Водные ресурсы: Реки Сырдарья, Нарын и Каскельен вливаются в Ферганскую долину, обеспечивая водой для полива сельскохозяйственных угодий. Однако управление водными ресурсами в этом регионе может становиться предметом напряженности между соседними странами.

Энергетические ресурсы: регион богат энергетическими ресурсами, такими как природный газ и уголь. Они используются для производства электроэнергии и обеспечения промышленных предприятий необходимыми источниками. Что в свою очередь способствует развитию малого бизнеса и частного предпринимательства.

В Ферганском регионе присутствуют различные полезные ископаемые, включая уран, свинец, цинк, золото и другие. Это может способствовать развитию горнодобывающей промышленности.

Однако необходимо отметить, что устойчивое использование этих природных ресурсов и сохранение окружающей среды являются важными вызовами для региона, учитывая интенсивное использование земли, воды и других ресурсов в сельском хозяйстве и промышленности. Это требует внимательного планирования, управления и сотрудничества между территориями региона. Эффективное использование природных ресурсов основывается на ряде принципов,